

**SURXONDARYO VILOYATIDA RIVOJLANAYOTGAN
ZIYORAT TURIZMI***Amirov Jamsid Parda o'g'li**Qarshi davlat universiteti talabasi*

O'zbekiston Respublikasida turizm, xususan ziyorat turizmi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Ziyorat turizmi tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash hamda jamiyatda ruhiy poklanish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston boy tarixiy va diniy merosga ega bo'lgan davlat sifatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Bu borada Surxondaryo viloyati alohida o'rin tutadi. Qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan bu hudud ko'plab muqaddas ziyoratgohlar, majmualar, qadamjolar, allomalar maqbaralari va tarixiy yodgorliklarga boydir.

Ziyorat turizmi — bu insonlarning diniy, ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida muqaddas maskanlarga, tarixiy qadamjolarga va ziyoratgohlarga qiladigan sayohatlari majmuasidir. U nafaqat diniy amaliyot sifatida, balki madaniy merosni asrab-avaylash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shuvchi turizm sohasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziyorat turizmi jarayonida odamlar muqaddas joylarda ibodat qiladi, tarixiy yodgorliklar bilan tanishadi va ruhiy poklanish orqali o'z ma'naviy dunyosini boyitadi. Shu bilan birga, bu turizm turi jamiyatda diniy bag'rikenglikni kuchaytiradi, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, ziyorat turizmi qadimdan mavjud bo'lib, diniy markazlar atrofida shaharlar va madaniy majmualar shakllanishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda esa u infratuzilma, transport, mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga turtki bo'lib, mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi.

Surxondaryo hududi qadimdan Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmog'i bo'lib, turli madaniyat va sivilizatsiyalar tutashgan makon hisoblanadi. Bu yerda zardushtiylik, buddaviylik, madaniyat, kushonlar davlati hamda islomiy tamaddun bosqichlari ketma-ket rivojlangan.

Viloyat markazi — Termiz shahri 2000 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. U uzoq asrlar davomida ilm-fan, savdo-sotiq, diniy va madaniy markaz sifatida mashhur bo'lgan. Bu yerda yetishib chiqqan allomalar islom sivilizatsiyasining taraqqiyotiga hissa qo'shganlar. Muqaddas qadamjolaridan biri bo'lgan Hakim at-Termiziy maqbarasi. Islom olamining yirik mutafakkiri va tasavvuf ilmining yetuk namoyondasi Hakim at-Termiziy bo'lgan va uning maqbarasi Surxondaryodagi eng muhim ziyorat maskanlaridan biridir. U kishi hadis, fiqh va tasavvuf sohalarida ko'plab ilmiy

meros qoldirgan. Uning asarlari bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Ushbu maqbara Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Pokiston, Hindiston hamda Arab mamlakatlaridan keladigan minglab ziyoratchilarni o'ziga jalb etadi.

Sulton Saodat majmuasi – IX–XVII asrlarga oid me'moriy obidalarni o'z ichiga olgan yirik majmua bo'lib, unda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodlariga mansub sayyidlar dafn etilgan. Ushbu majmua nafaqat diniy, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ham ega bo'lib, islom me'morchiligining nodir namunasidir. Bu majmua viloyatning Termiz shahrida joylashgan, tarixiy-memoriy yodgorlik hisoblanadi.

Fayoztepa majmuasi — buddaviylik davriga oid yodgorlik bo'lib, Termiz shahri yaqinida joylashgan. Bu obida Surxondaryoda turli diniy madaniyatlarning uyg'unlashganini ko'rsatadi, hamda ziyorat turizmi uchun muhim obyekt hisoblanadi.

Bundan tashqari viloyatda Qirq qiz qal'asi, Kampirtepa, Zurmal minorasi va boshqa yodgorliklar hamda muzeylar ham mavjud bo'lib, ular buddaviylik va ilk islom davri tarixini o'zida mujassam etgan. Ushbu obidalar nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy ahamiyatga ham ega. Bu obyektlar ziyorat turizmi bilan birga ilmiy, madaniy va arxeologik turizm yo'nalishlarining ham rivojlanishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, Surxondaryo viloyatida ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'l-larning rekonstruksiyasi, mehmonxonalar va servis obyektlarining barpo etilishi, zamonaviy transport xizmatlarining yo'lga qo'yilishi, raqamli axborot tizimlari orqali turistlarga qulaylik yaratish, malakali tarjimonlar tayyorlash kabi muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar sayyohlar oqimini oshirib, hududning turistik jozibadorligini kuchaytirmoqda.

Ziyorat turizmi Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, transport va yo'l infratuzilmasi rivojlantirilmoqda, hunarmandchilik va ishlab chiqarish rivojlanmoqda, xizmat ko'rsatish sohasi kengaymoqda. Bundan tashqari, ziyorat turizmi yosh avlodda tarixiy ong, milliy g'urur va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ziyorat turizmining rivojlanishi hudud iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga aholining ma'naviy dunyosini boyitib, milliy qadriyatlar va an'analarni saqlashga katta hissa qo'shmoqda.

Xulosa. Surxondaryo viloyati boy tarixiy meros, muqaddas qadamjolar va qulay geografik joylashuvga ega hudud sifatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Bu tarixiy meroslar, ziyoratgohlar, yodgorliklar, muzeylar va muqaddas qadamjolar hududni nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy

Osiyodagi yirik ziyorat markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida viloyat yaqin kelajakda xalqaro miqyosdagi yirik ziyorat markaziga aylanishi mumkin.

Surxondaryo viloyatida ziyorat turizmining rivojlanishi diniy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, tarixiy merosni keng targ'ib qilish va hududning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Viloyatdagi qadimiy qadamjolar, maqbaralar va muqaddas maskanlar nafaqat mahalliy aholining ruhiy ehtiyojlarini qondiradi, balki xorijiy sayyohlarni ham jalb etmoqda.

Ziyorat turizmi infratuzilmaning yaxshilanishiga, xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga turtki bermoqda. Shu bilan birga, u xalqaro miqyosda Surxondaryoning tarixiy-madaniy obro'sini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish diniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash, madaniy almashinuvni kuchaytirish va hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shayotgan strategik yo'nalish sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2025 yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari. Ziyorat turizmini rivojlantirishga oid hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2020–2024.
3. Qodirov B. Surxondaryo viloyatining turistik salohiyati. – Toshkent: Turon zamin, 2021.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Surxondaryo viloyati", "Termiz shahri", "Hakim at-Termiziy". – Toshkent, 2005–2015.
5. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.
6. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
7. Safarov I. B. et al. Ziyorat turizmini rivojlantirishda gat texnologiyalarining o'rni //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 502-505.